

IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 16 181,5 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 80,8 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 7 517,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi



	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>umumiylajmiy hajmga nisbatan % da</i>
--	-------------------	--------------------------	--

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	16 181,5	80,8	100,0
--	-----------------	-------------	--------------

shu jumladan:


Markazlashgan investitsiyalar:	3534,5	114,3	21,8
budjet mablag‘lari	1465,2	112,4	41,5
Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	318,7	64,2	9,0
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	40,0	30,8	1,1
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1710,6	147,2	48,4
Markazlashmagan investitsiyalar:	12647,0	74,7	78,2
korxonalarning o‘z mablag‘lari	3825,6	92,1	30,2
aholi mablag‘lari	2394,3	100,3	18,9
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	5806,6	60,7	45,9
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari	620,5	75,2	5,0

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



**Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan investitsiyalar,
tarkibi % da**

**O‘tgan yilning mos
davriga nisbatan,
% da**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Jami, mldr. so‘m	16181,5	2371,5	13810,0
<i>shu jumladan:</i>			
qurilish-montaj ishlari	8103,9	1917,3	6186,6
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	6514,2	170,1	6344,1
Boshqa xarajatlar	1563,4	284,1	1279,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 1,4 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi o‘zgarishsiz qolganligi va boshqa harajatlarning ulushi 1,4 % li punktga kamayganligini ko‘rsatmoqda.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 3534,5 mlrd. soʻmlik investitsiya mablagʼlari kiritilib, bu koʻrsatkich jami investitsiyalarning 21,8 % ni tashkil etdi, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 114,3 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 12647,0 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʼzlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 78,2 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 74,7 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning oʼz mablagʼlari hisobiga 3825,6 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 30,2 % oʼzlashtirildi. Aholining mablagʼlari hisobidan 2394,3 mlrd. soʻmlik investitsiyalar oʼzlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 18,9 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 1710,5 mlrd. soʻmlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 147,2 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 48,4 % ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablagʼlari hisobidan 620,5 mlrd. soʻmlik mablagʼlar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiyligi hajmining 5,0 %), bu oʼsish surʼati 75,2 % ni tashkil etdi, toʼgʼridan-toʼgʼri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 5806,6 mlrd. soʻm (ulushi 45,9 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 60,7 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamgʼarmasi hisobidan 40,0 mlrd. soʻm (ulushi 1,1 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 30,8 % ni tashkil etdi, Viloyat budgeti 1465,2 mlrd. soʻm (ulushi 41,5 %) usish surʼati 112,4 %. Suv taʼminoti tizimlarini rivojlantirish jamgʼarmasi hisobidan 318,7 mlrd. soʻm, (ulushi 9,0 %) va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 64,2 % ga kamaydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar

Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishslash sanoatiga 1324,5 mlrd. soʻm (6,0 %), shundan koks va neftri qayta ishslash mahsulotlari ishlab chiqarishga 960,7 mlrd. soʻm (5,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 1144,1 mlrd. soʻm (7,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 73,7 mlrd. soʻm (0,5 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 650,7 mlrd. soʻm (4,0 %), tashish va saqlashga 478,0 mlrd. soʻm (2,9 %), togʼ-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashga 27,2 (0,2 %) mlrd. soʻm, shundan tabiiy gazni qazib olishga 4848,7 mlrd. soʻm (30,0 %), qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligi faoliyat turiga 1300,5 (8,1 %) mlrd. soʻm, elektr energiyasi va gaz taʼminotiga 73,2 mlrd. soʻm (0,5 %), suv taʼminoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 123,8 mlrd. soʻm (0,7 %), qurilishda 674,2 mlrd. soʻm (4,2 %), ulgurji va chakana savdoga 449,8 mlrd. soʻm (2,7 %), axborot va aloqa 113,6 mlrd. soʻm (0,7 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 0,9 mlrd. soʻm (1,4 %), taʼlimga 433,7 mlrd. soʻm (2,7 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 605,9 mlrd. soʻm (3,7 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 8,0 mlrd.


so‘m (0,5 %), moliya va sug‘urta faoliyatiga 1,1 mlrd. so‘m (0,3 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kursatishga 1502,8 mlrd. so‘m (9,3 %), san‘at ko‘ngil ochish va dam olishga 0,5 mlrd. so‘m (0,1 %), turar-joy qurilishiga 1283,4 mlrd. so‘m (7,9 %) va boshqa faoliyat turlariga 102,5 mlrd. so‘m (0,6 %) to‘g‘ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga
kiritilgan investitsiyalar va kreditlar
(umumiy hajmga nisbatan % da)**


■ 2021- yil yanvar-dekabr □ 2022- yil yanvar-dekabr



**2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi**



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,9 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi, shu bilan birga, To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 35,9 %, Respublika byudjeti hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 9,1 % ni tashkil etadi.

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy
kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	16181,5	80,8	100,0
Respublika budjeti	1465,2	112,4	9,1
Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	318,7	64,2	2,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	40,0	30,8	0,2
O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	1710,5	147,2	10,6
Korxonalar mablag‘lari	3825,6	92,1	23,6
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	620,5	75,2	3,8
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	5806,6	60,7	35,9
Aholi mablag‘lari	2394,3	100,3	14,8

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o‘sish sur’atlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 1710,5 mlrd. so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 147,2 % ni tashkil etgan.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar, mlrd. so ‘m**

	<i>2021- y. yanvar-dekabr</i>	<i>2022- y. yanvar-dekabr</i>	<i>o‘tgan yilning mos davriga o‘sish sur’ati, % da</i>	<i>jami investitsiyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.</i>
Qashqadaryo viloyati	17 359,1	16 181,5	80,8	101 821,2
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	3 519,3	2 492,0	61,4	-
Shahrisabz sh.	159,0	242,9	132,4	1 134,0
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	4 628,3	2 635,8	49,4	-
Dehqonobod	326,5	337,8	89,9	204,7
Qamashi	477,3	280,6	51,0	276,0
Qarshi	649,4	783,9	104,7	5 805,1
Koson	414,7	606,1	126,8	1 962,0
Kitob	1 064,9	1 265,8	103,1	70 280,0
Mirishkor	371,5	400,0	93,5	6832,0
Muborak	3 064,1	3 371,0	95,3	347,4
Nishon	887,7	1 816,5	177,3	2 000,0
Kasbi	420,9	494,3	101,9	12 980,0
Ko‘kdala	-	53,2	-	-
Chiroqchi	403,4	555,2	119,3	-
Shahrisabz	585,7	480,4	71,0	-
Yakkabog‘	386,4	366,0	82,2	-

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar
(2022-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
--	---	---------------------------------

Qashqadaryo viloyati	4 696,4	79,1
-----------------------------	----------------	-------------

shahrlar:

Qarshi sh.	8 704,3	60,2
------------	---------	------

Shahrisabz sh.	1 689,2	130,5
----------------	---------	-------

tumanlar:

G‘uzor	12 271,0	48,3
--------	----------	------

Dehqonobod	2 183,6	87,9
------------	---------	------

Qamashi	989,2	49,9
---------	-------	------

Qarshi	2 987,2	102,1
--------	---------	-------

Koson	2 013,6	123,8
-------	---------	-------

Kitob	4 623,1	101,2
-------	---------	-------

Mirishkor	3 187,5	91,4
-----------	---------	------

Muborak	37 002,9	93,5
---------	----------	------

Nishon	11 282,8	173,5
--------	----------	-------

Kasbi	2 397,2	99,7
-------	---------	------

Ko‘kdala	295,9	-
----------	-------	---

Chiroqchi	2 149,3	196,8
-----------	---------	-------

Shahrisabz	2 094,9	70,0
------------	---------	------

Yakkabog‘	1 336,2	80,6
-----------	---------	------

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Muborak tumani 37 002,9 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan, G‘uzor tumani 12 271,0 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m**

	<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>				
		<i>Respublika budjeti</i>	<i>korxonalar mablag‘lari</i>	<i>aholi mablag‘lari</i>	<i>xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	<i>Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari</i>
Qashqadaryo viloyati	16 181,5	1 465,2	3 825,6	2 394,3	7 517,1	1 710,5

shaharlar:

Qarshi sh.	2492,0	564,4	643,4	179,2	874,7	245,8
Shahrisabz sh.	242,9	26,4	59,4	56,5	92,5	-

tumanlar:

G‘uzor	2635,8	72,6	1063,7	186,9	1240,0	2,7
Dehqonobod	337,8	36,4	31,5	184,6	13,9	0,1
Qamashi	280,6	71,2	30,5	132,3	26,5	2,2
Qarshi	783,8	77,8	124,8	128,6	374,0	5,2
Koson	606,1	52,0	107,9	217,8	207,9	37,7
Kitob	1265,8	71,5	73,9	185,0	863,2	1,3
Mirishkor	400,0	14,2	76,3	134,4	160,0	-
Muborak	3371,0	43,1	1233,4	170,3	1920,8	11,1
Nishon	1816,5	90,4	91,0	81,2	1471,0	1377,5
Kasbi	494,3	68,0	31,3	155,7	209,5	-
Ko‘kdala	53,2	51,6	-	-	1,6	-
Chiroqchi	555,2	62,5	24,2	340,6	15,5	1,4
Shahrisabz	480,4	107,5	184,6	91,3	25,7	24,6
Yakkabog‘	366,0	55,7	50,0	149,6	20,5	0,9

davomi

	<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. soʻm</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari boʻyicha:</i>		
		<i>Suv taʼminoti tizimlarini rivojlanтиrish jamgʼarmasi</i>	<i>Tiklanish va taraqqiyot jamgʼarmasi</i>	<i>tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʼlari</i>
Qashqadaryo viloyati	16 181,5	318,7	40,0	620,5
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2492,0	94,2	-	136,1
Shahrisabz sh.	242,9	0,6	-	7,6
<i>tumanlar:</i>				
Gʼuzor	2635,8	57,3	-	15,3
Dehqonobod	337,8	62,0	-	9,4
Qamashi	280,6	-	-	20,1
Qarshi	783,9	35,1	-	43,5
Koson	606,1	9,9	-	10,6
Kitob	1265,8	1,5	-	70,8
Mirishkor	400,0	2,8	-	12,3
Muborak	3371,0	1,4	-	1,9
Nishon	1816,5	14,4	40,0	28,5
Kasbi	494,3	22,0	-	7,8
Koʼkdala	53,2	-	-	-
Chiroqchi	555,2	1,5	-	110,9
Shahrisabz	480,4	9,0	-	62,3
Yakkabogʼ	366,0	6,9	-	83,4

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 1153,0 ming kv.m. boʻlgan 5370 ta uy-joy qurilgan (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,7 %) shu jumladan, qishloq joylarda 557,6 ming kv.m, 2363 uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 1163,0 mlrd. soʻmi yoki 7,2 % i turar-joy qurilishida oʻzlashtirildi.

Umumtaʼlim maktablari va maktabgacha taʼlim muassasalari qurilishida 414,0 mlrd. soʻm atrofida investitsiyalar oʻzlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yoʼnaltirilgan investitsiyalarning 2,5 foizini tashkil qiladi.


Qurilish faoliyati. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 7831,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 105,8 % ni tashkil etdi.

7831,1
mlrd.
soʻm

105,8 %





Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha qurilish ishlari (umumiy hajmga nisbatan % da)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 71,7 % i binolar va inshootlarni qurishga, 17,7 % i fuqarolik qurilishi obʼektlarini qurish boʻyicha qurilishga 10,6 % i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga toʻgʻri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 63,3 % i yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga toʻgʻri keladi.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining
o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 26,8 % ni tashkil etib, ulushi 3,0 % li punktga ko'paydi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 49,4 % ni tashkil etib, 1,8 % li punktga kamaygan, norasmiy sektorning ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 4954,7 mlrd. so'mni (ulushi 63,3 %) tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 2876,4 mlrd. so'mni (ulushi 36,7 %) tashkil etdi.



**Qurilish ishlari turlari bo'yicha
(jamiga nisbatan foiz hisobida)**




**Yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha
qurilish ishlari hajmi, mldr. so‘m**

	2021- yil	2022- yil	<i>o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</i>
Qashqadaryo viloyati	6336,6	7831,1	105,8	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	1728,1	1867,3	92,2	28,6
Shahrisabz sh.	352,7	329,1	79,6	4,3
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	494,3	824,2	142,5	8,4
Dehqonobod	138,1	171,2	107,9	1,9
Qamashi	224,1	213,7	82,2	2,7
Qarshi	458,9	630,1	117,4	8,1
Koson	433,3	511,8	101,3	6,3
Kitob	439,7	521,2	101,7	7,6
Mirishkor	182,7	196,2	93,1	2,5
Muborak	341,6	711,2	177,8	4,8
Qarshi	210,6	235,0	95,5	3,3
Kasbi	230,8	282,6	105,5	3,8
Ko‘kdala	77,3	96,6	108,7	1,4
Chiroqchi	492,7	634,9	110,3	7,8
Shahrisabz	198,3	230,0	99,3	3,4
Yakkabog‘	333,4	376,0	97,0	5,1

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha qurilish ishlari hajmida Qarshi shahri 1728,1 mlrd. so'm, G'uzor 494,3 mlrd. so'm, Chiroqchi 492,7 mlrd. so'm va Qarshi 458,9 mlrd. so'm hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlaringin yuqori o'sish sur'ati Muborak (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 177,8 %), G'uzor (142,5 %), Qarshi tumani (117,4 %) va Chiroqchi (110,3 %) tumanlarida kuzatildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar G'uzor tumani (3837,3 ming so'm, o'sish sur'ati 2,2 m.), Qarshi shahri (6522,1 ming so'm yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,0 m.), Qamashi tumani (753,2 ming so'm, o'sish sur'ati 194,0 %) hamda Kasbi tumani (1370,6 ming so'm, o'sish sur'ati 2,0 m.) qayd etildi.



Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati




Aholi jon boshiga qurilish ishlari (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	2 272,9	103,6
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi sh.	6 522,1	2,0 m.
Shahrisabz sh.	2 288,5	183,1
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	3 837,3	2,2 m.
Dehqonobod	1 106,6	4,6 m.
Qamashi	753,2	194,0
Qarshi	2 401,4	140,4
Koson	1 700,5	156,4
Kitob	1 902,9	143,7
Mirishkor	1 563,7	2,1 m.
Muborak	7 806,7	4,6 m.
Qarshi	1 459,4	121,1
Kasbi	1 370,6	2,1 m.
Ko‘kdala	537,8	-
Chiroqchi	2 458,1	5,7 m.
Shahrisabz	1 003,2	154,7
Yakkabog‘	1 372,8	188,8




**2022- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar turlari bo‘yicha
qurilish ishlari hajmi,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko‘rsatkichlari Muborak (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 66,1 %), Chiroqchi (ulushi 50,7 %), G’uzor (ulushi 42,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi,
(umumiy hajmga nisbatan % da)



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Qarshi shahrida 23,8 % ni, G'uzorda 10,5 % ni va Chiroqchi tumanida 8,1 % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Ko'kdala (1,2 %), Dehqonobod (2,2 %) va Mirishkor (2,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.